



KORXONALARDA EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARI HISOBINI TASHKIL QILISHNING ME'YORIY- HUQUQIY ASOSLARI

Rasulova Zilola

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

ORCID: 0000-0002-2168-3141

zilola8788@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada eksport operatsiyalarini rag'batlantirish, importni tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar, qonunlar bilan tartibga solinishi, innovatsion faoliyat va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar, yangi joriy etilgan qonunlar, o'zgartirishlar va ularning ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: eksport va import operatsiyalari, Inkoterms xalqaro qoidalari, bojxona faoliyati, soliq siyosati, tashqi savdo va valyuta tushumi.

НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕТА ЭКСПОРТНО-ИМПОРТНЫХ ОПЕРАЦИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ

Расулова Зилола

Ташкентский международный университет Кимё

Аннотация. В статье рассматриваются меры стимулирования экспортных операций, регулирования импорта, их законодательное регулирование, инновационная деятельность и, в целом, меры, принимаемые для обеспечения сбалансированности внешней торговли, вновь принятые законы, поправки к ним и их значение.

Ключевые слова: экспортно-импортные операции, правила Инкотермс, таможенная деятельность, налоговая политика, внешняя торговля и валютные поступления.

REGULATORY AND LEGAL BASIS FOR ORGANIZING ACCOUNTING FOR EXPORT AND IMPORT OPERATIONS IN ENTERPRISES

Rasulova Zilola

Kimyo International University in Tashkent

Abstract. The article discusses measures to stimulate export operations, regulate imports, their regulation by law, innovative activities and, in general, measures taken to ensure the balance of foreign trade, newly introduced laws, amendments and their significance.

Keywords: export and import operations, international Incoterms rules, customs activities, tax policy, foreign trade and foreign exchange earnings.

Kirish.

Jahon mamlakatlari iqtisodiyotining integratsiyalashuvi sharoitida respublikamizda tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksport-import operatsiyalarida valyuta munosabatlarini hisobga olishni takomillashtirib borish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida ta'kidlaganlaridek, *".... barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi – raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish hisoblanadi"*. Shuni alohida qayd etish joizki, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va liberallashtirilishi ko'plab xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini bermoqda, natijada ularga valyuta tushumini ta'minlash, tashqi bozorda barqaror o'rnashib olish, raqobatbardosh mahsulotlar, ish va xizmatlar ishlab chiqarish imkonini beradi. Bu o'z navbatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda eksport-import operatsiyalari hisobini takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltiradi. Jahonda eksport- import va valyuta operatsiyalari doimiy ravishda alohida hisob-kitob yuritishni talab etadi. Turli mamlakatlar o'rtasidagi mahsulot, ish yoki xizmatlar eksporti yoki importida o'zaro hisob-kitoblar natijasida moliyaviy majburiyatlar vujudga keladi.

Adabiyotlar sharhi.

Korxonalarda eksport va import operatsiyalari hisobini tashkil qilish bo'yicha juda ko'p turli tadqiqotchilar tomonidan tadqiq qilingan. Gasheva (2010) eksport operatsiyalarini klassifikatsiyasi haqida, Ogorodkina (2015) eksport va import operatsiyalari sharnomalari haqida, Grunina (2009) import operatsiyalarini tahlili haqida o'z tadqiqotlarini olib borishgan.

Burova (2011) aytgandek, eksport operatsiyalari klassifikatsiyasini ishlab chiqqan bo'lib u o'z ishida quyidagi tasniflash mezonlarini keltirib o'tgan:

- eksport savdo yo'nalishi geografiasiga qarab bozor maydonini qamrab oladi.
- to'lov shakllari (pul shaklida, avans to'lovi to'lash, to'lovlarni tovar jo'natilganidan keyin to'lash, akkreditiv hisob-kitob)
- savdo ob'ektlari bo'yicha operatsiyalar

- tashqi savdoni sub'ekt o'zi amalga oshirish yoki vositachilar orqali amalga oshirilishi

Karputova (2014) fikricha import qilinadigan tovarlarni hisobga olishning muhim jihati import qilinadigan tovarlarning haqiqiy qiymati, ya'ni sotib olish qiymatining shakllanishidir deya ta'kidlaydi va mazkur xarajatlarga quyidagilarni keltirib o'tadi:

- tovarlarning tannarxi shu jumladan, qadoqlash xarajatlari;
- bojxona to'lovlari – tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish bilan bevosita bog'liq bojxona to'lovlari, soliqlar va yig'imlar;
- transport xarajatlari va tovarlarni xarid qilish, yetkazib berish va sotib olish uchun boshqa xarajatlar

Shuningdek yana qator olimlar eksport va import operatsiyalarini takomillashtirish hamda zamonaviy bozor munosabatlarida eksport va import operatsiyalarini hisobini yuritishda muammolari bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borishgan. Hozirgi vaqtda esa eksport va import operatsiyalarini hisobini yuritishda meyoriy huquqiy asoslar bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli emasligi ushbu mavzuda ilmiy maqola tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqardi

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola tadqiqotining nazariy va uslubiy asosini iqtisod fani klassiklarining fundamental ilmiy va amaliy ishlari o'rganilayotgan muammo bo'yicha yetakchi mahalliy va xorijiy olimlarning ishlari faoliyat ko'rsatish muammolari bo'yicha ixtisoslashtirilgan ilmiy tadqiqot va tekstil korxonalarining eksport va import operatsiyalari ishlanmalarini tashkil etadi va eksport operatsiyalarini takomillashtirishni davlat tomonidan tartibga solish tizimi, xalqaro, milliy va mintaqaviy, ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminar materiallari, davriy, ilmiy

jurnallarda nashrlar , eksport va import operatsiyalarini rivojlantirish davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar ,dasturlarni tashkil etadi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda eksport operatsiyalarini rag'batlantirish, valyuta siyosatini liberallashtirish orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi valyuta munosabatlari va importni tartibga solish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qonunda xorijiy valyutani erkin sotib olish va sotish imkoniyati va milliy valyuta ayirboshlash kursini bozor mexanizmlaridan foydalangan holda belgilash mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki va tashqi bozordagi raqobatdoshligi va rentabelligini oshirish bilan bir qatorda mamlakatimizda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ko'paytirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan yangi texnologiyalar va bilimlarni jalb qilish, eksport imkoniyatlarini kengaytirishga olib kelishi belgilangan. Belgilangan vazifalardan kelib chiqib, eksport-import va valyuta operatsiyalari hisobi hamda mazkur yo'nalishdagi me'yoriy hujjatlarni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, bu borada ilmiy tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq. 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-son "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora tadbirlar to'g'risida"gi, 2020 yil 18 avgustdagi PF-6042-son Respublikada "Eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ma'lum darajada xizmat qiladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda eksport-import operatsiyalarining amalga oshirilishi bir qator jarayonlar bilan tartibga solinadi.

Shuningdek, Prezidentimizning "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni da "Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash asosiy maqsadlardan biri ekanligi alohida ta'kidlandi. So'nggi yillarda investitsiyalar va yangi texnologiyalarni faol jalb qilish orqali sanoat samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Masalan, o'tgan yili 8 milliard 200 million dollarlik to'qimachilik va tikuvchilik-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilgan, bu yetti yil avvalgidan 4,2 baravar ko'p ekanligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, xalqaro savdo nazorati, soliq nazorati, valyuta nazorati, shuningdek, bojxona faoliyati bilan bog'liq nazorat tizimidir.

Quyidagi rasm orqali eksport operatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini shakllanishini ko'rishimiz mumkin (1-rasm.).

Eksport-import operatsiyalarini tartibga solish manbai sifatida xalqaro huquqiy hujjat sifatida 1980 yil 11 aprelda qabul qilingan "Tovarlar xalqaro oldi-sotdi shartnomalari to'g'risida" Vena konvetsiyasini qayd etish maqsadga muvofiq. Ushbu Konventsiya eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda oldi-sotdi shartnomalarini tuzish, shuningdek, sotuvchi va xaridorning shartnomadan kelib chiqib majburiyat va huquqlarini tartibga soladi. Eksport va import qilinadigan tovarlarni yetkazib berish, saqlash va sug'urta qilish, ularning bojxona rasmiylashtiriluvda yuklarni yuklash va tushirish operatsiyalarini amalga oshirish uchun to'lovlar, transport va savdo hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish va boshqa xarajatlar taraflar o'rtasida odatda Inkoterm tomonidan tartibga solingan asosiy shartlar tamoyillariga muvofiq taqsimlanadi. Inkotérms (angl. Incoterms, International commercial terms) xalqaro qoidalarni o'z ichiga oluvchi tashqi savdo sohasida eng ko'p ishlatiladigan atamalardan biri bo'lib, eng avvalo (free-tozalash) javobgarlikni sotuvchidan xaridorga o'tkazish joyidir. Xalqaro savdo atamaları xalqaro tan olingan hujjatda oldindan belgilab qo'yilgan xalqaro savdo shartnomalarining standart belgilangan shartlarini anglatadi, xalqaro savdo palatasi tomonidan ishlab chiqilgan standart savdo shartnomasida qo'llaniladi.



1-rasm. Eksport operatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari

2025 yil 31 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bojxona yig'irlari stavkalarini tasdiqlash to'g'risida" 55-son qarori qabul qilindi. Qaror bilan quyidagilarni nazarda tutgan holda Bojxona yig'irlari stavkalari tasdiqlandi:

✓ tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'irlar miqdori bojxona organlari tomonidan harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan harajatlarning taxminiy qiymatidan kelib chiqib belgilanadi.

✓ tovarlarni "eksport" va "import" bojxona rejimlariga rasmiylashtirish uchun undiriladigan bojxona yig'irlari stavkalari o'zaro muvofiqlashtirildi;

✓ bojxona organlarining ish vaqtidan tashqari bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'im miqdori barobarga kamaytirildi. Ya'ni, BHMning 2 baravaridan 25 foiziga tushirildi;

bojxona hududida va hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimlarida undiriladigan yig'im miqdori 2 barobarga pasaytirildi;

✓ dastlabki deklaratsiyalash amalga oshirilganda undiriladigan yig'imga 20% miqdorida chegirma taqdim etiladi.

✓ tranzit bojxona rejimi uchun BHMning 25 foizi miqdorida yig'im belgilandi;

☑ xalqaro kuryerlik jo'natmalarining 1 kg. uchun BHMning 2 foizi miqdorida yig'im belgilandi.

Oldindan haqi to'lanmasdan, akkreditiv ochilmasdan, bank kafolat rasmiylashtirilmasdan va eksport kontraktini siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug'urta qilish bo'yicha polis mavjud bo'lmasdan xorijiy valyutaga eksport qilish bo'yicha imtiyozlar tatbiq etilmaydigan tovarlar Ro'yxatidan TIF TN bo'yicha 0 kodli tovarlar chiqarildi.

2025 yil 11 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bojxona ma'muriyatchiligi tartib-taomillarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 77-son qarori qabul qilindi. Qaror bilan:

Tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish hamda shartnomalar ijrosida asossiz debitor va kreditor qarzdorliklar shakllanishini oldini olish maqsadida:

► tashqi savdo shartnomalari soni 22 tadan 6 taga (eksport, import, barter, ichki eksport, invoices asosida eksport, invoices asosida import) qisqartirildi;

► tashqi savdo ishtirokchilari uchun bitta shartnoma doirasida turli bojxona rejimlaridan foydalanish imkoni yaratildi;

► endilikda Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimida tovarlarni mamlakatimizdan olib chiqishni nazarda tutuvchi "markazlashtirilgan eksport", "eksport birja", "eksport-konsignatsiya", "qayta ishlash (respublika hududida)", "eksport lizing", "olib chiqish" shartnomalari umumiy "eksport" shartnomasi shaklida, tovarlarni mamlakatimizga olib kirishni nazarda tutuvchi "markazlashtirilgan import", "import birja", "qayta ishlash (respublika tashqarisida)", "import lizing" va "olib kirish" shartnomalari umumiy "import" shartnomasi tarzida shakllantiriladi;

► "import" shartnomasi asosida tovarlarni "erkin muomalaga chiqarish (import)" yoki "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimlariga yoxud keyinchalik xorijga sotish maqsadida "bojxona ombori", "erkin ombor" va "erkin bojxona zonasi" bojxona rejimlariga rasmiylashtirishga ruxsat etildi;

► "eksport" shartnomasi asosida tovarlarni "eksport" bojxona rejimiga yoki bojxona hududiga avval olib kirilgan tovarlarni "reeksport" bojxona rejimiga yoxud "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimidan keyingi qayta ishlash operatsiyasi uchun "erkin ombor" bojxona rejimiga rasmiylashtirish imkoniyati joriy etildi;

► tovarlarning shartnoma ijrosida aks etishi bojxona yuk deklaratsiyasining bitim xususiyati bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

Vakolatli iqtisodiy operator maqomini olish jarayonlari soddalashtirildi va ularga tadbir etiladigan qulayliklar kengaytirildi. Bunda:

► bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lash muddati 20 ish kunidan 30 kalendar kungacha uzaytirildi;

► xavf darajasi o'rta bo'lgan operatorlarning tovarlari bir soat mobaynida rasmiylashtirilishi belgilandi;

► yuridik shaxsning rahbari, bosh buxgalteri va vakolatli shaxsining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi" kodeksning javobgarlikka tortilganlik holatlari ikki va undan ortiq marotaba mavjud bo'lmaslik sharti qayd etildi;

► tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan debitor qarzdorlik summasi 10 foizdan oshmasligi belgilab berildi.

Bu qabul qilingan qarorlar Prezident farmoyishlari eksport va import faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar uchun imkoniyatlar debochasi bo'lishi lozim. Bu albatta soliq mexanizmlari bilan ham imtiyoz berilishi lozim deb o'ylayman

Xulosa va takliflar

Eksport-import operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob siyosati tashqi savdo operatsiyalarini tashkil etish va yuritishni ta'minlashni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagina o'zgartirish mumkin. Bular tarkibiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- eksport-import operatsiyalari valyuta va boshqa operatsiyalar bo'yicha mamlakatimiz qonunchiligida, shuningdek valyuta va eksport-import operatsiyalarini hisobga olish yoki soliq hisobini tartibga soluvchi normativ- huquqiy hujjatlar

- o'zgartirilganda;

- chet el valyutasida ifodalangan mulk va majburiyatlarni hisobga olishning yangi usuli, usullari va uslublari ishlab chiqilganda va qabul qilinganda;

- eksport-import operatsiyalarini tashkil etish sharoitida sezilarli o'zgartirishlar yuz berganda. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning tashqi iqtisodiy faoliyatida sezilarli o'zgarishlar tashqi omillar (xalqaro darajadagi siyosiy vaziyatning o'zgarishi, iqtisodiy tashqi savdo qarorlari va boshqalar) va ichki omillar (xo'jalik yurituvchi sub'ektni qayta tashkil etish, mulkchilik va investorlarning o'zgarishi, faoliyat turini o'zgartirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy siyosati va boshqalar).

Buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlardagi eksport-import faoliyatini hisobga olish bo'yicha operatsiyalarni aks ettirish xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob siyosatidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Import qilinadigan tovarlar hisobini yuritishda quyidagi ikkita jihatdan e'tirof etishimiz lozim: import qilinadigan tovarlarga egalik xaridorga o'tgan davrdan boshlab hisobga olinishi va import qilinadigan tovarlar qiymatini xarajatlar tarkibidan kelib chiqib to'g'ri shakllantirish kerak.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Farmon (2017) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-son Farmoni.*

Farmon (2023) *"O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni.*

gov.uz (n.d.) *O'zbekiston Respublikasi hukumati rasmiy sayti.*

lex.uz (n.d.) *O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.*

mf.uz (n.d.) *(O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi rasmiy sayti.*

Murojaatnoma (n.d.) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnoma.*

Бурова Е.Г. (2011) *Организация и развитие учета экспортных операций в коммерческих организациях: дис. канд. экон. наук. ростов н/д: Ростовский государственный экономический университет (ринх).*

Гашева Е.В. (2010) *Теоретические и прикладные аспекты, существенно влияющие на учет импортных сделок. Бухгалтерский учет и статистика. 107-111 стр.*

Грунина Н. Ю. (2009) *Особенности бухгалтерского учета и контроля импортных операций. Москва. 182 стр.*

Карпутова И. Г. (2014) *Организационно-методические аспекты бухгалтерского учёта импортных товарных операций Вестник Сибирского Университета потребительской кооперации. 46 стр.*

Огородникова И.И. (2015) *Методическое пособие особенности налогообложения экспортных и импортных операций. Минимизация рисков и ошибок со стороны субъектов внешнеэкономической деятельности. 8 стр.*